

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ulashova Sevinch Ulash qizi</i> CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN	8-13
<i>Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li</i> "XITOIY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI	14-18
<i>Dexkanov Narimon Burxonjonovich</i> ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI	19-22
<i>Saparbayeva Aziza Asror qizi</i> SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI	23-28

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	29-34
<i>Utkirov Anvar Utkirovich</i> KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI	35-44

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	45-52
<i>Rahmonova Feruza Bahromjon qizi</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO'LI SIFATIDA	53-58
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI	59-64

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI	65-73
<i>Hikmatova Nigina Akmalovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI	74-79
<i>Sultanova Xurshida Uktamjanovna</i> PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA)	80-86

<i>Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi</i> XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI QIYOSIY O'RGANISH	87-91
--	-------

<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna</i> J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	92-96
---	-------

<i>Miraxmedova Zilola Erkinovna</i> EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI	97-101
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Абдуолимов Уринбой Худобердиевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ	102-110
--	---------

<i>Алишаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУҚМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ	111-119
---	---------

<i>Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o'g'li</i> OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO'RAYEVLAR OILASI MISOLIDA)	120-124
--	---------

<i>Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna</i> KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT	125-135
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Rashidova Oynisa Xusniddin qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	136-140
--	---------

<i>Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi</i> DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH	141-146
---	---------

<i>Ганнаров Захид Ганнарович</i> ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СИНХРОНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЙ В СИНХРОННОМ ПЛАВАНИИ	147-153
---	---------

<i>Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna</i> TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI	154-159
---	---------

Received: 10 July 2024
Accepted: 15 July 2024
Published: 25 July 2024

Article / Original Paper

TRENDS OF SYSTEMATIC ORGANIZATION OF DIVERSITY IN INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF ENTERPRISES

Utkirov Anvar Utkirovich

Independent researcher Karshi State University

Abstract. This article presents theoretical aspects of trends in the systemic organization of divergence in increasing the economic efficiency of enterprises and an analysis of general indicators of industrial development of the Kashkadarya region.

Key words: divergence system for increasing the economic efficiency of enterprises, the nature of industry development, innovative investments on economic growth, the influence of new trends.

KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI

Utkirov Anvar Utkirovich

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirishda divergentsiyani tizimli tashkil etish tendensiyalari hamda Qashqadaryo viloyatida sanoat rivojlanishining umumiy ko'rsatkichlari tahlili nazariy jihatlarini keltirilgan.

Kalit so'zlar: korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirishda divergentsiyani tizim, sanoatining rivojlanish xususiyati, Innovatsion investitsiyalar iqtisodiy o'sish, yangi tendensiyalar ta'siri.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N06>

Kirish. O'zbekiston sanoatining rivojlanish xususiyati sanoat tarmoqlarining qayta ishlash sohalarida fond qaytimi va mehnat unumdorligining jadal o'sish tendensiyasiga erishganligi hisoblanadi. Mehnat unumdorligining o'rtacha yillik o'sishi sanoat bo'yicha 2019-2023- yillarda 9 foizni tashkil qildi. Mashina qurilishi, yengil, oziq-ovqat tarmoqlarida o'sish darajasi ancha yuqori bo'lgan (o'rtacha 15,4 foiz), yoqilg'i-moylash tarmoqlarida 3,4 foizni tashkil qildi. Qayta ishlash darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan tarmoqlarda fond qaytimi jadal o'sish darajasida ijobiy tendensiya kuzatilgan. Bu tarmoqlarda fond qaytimi o'rtacha 1,8 marta, shu jumladan, mashina qurilishida 2,0 marta, yengil sanoatda 1,5 marta, oziq-ovqatda 1,7 marta ortgan.

Yuqori texnologiyalar sohasida radiosanoat, kompyuter texnikasi, tibbiy asboblari, optik qurilmalar, nazorat tizimlari, fizika va mikrobiologiya uskunalari hamda kimyoviy tolalar ishlab chiqarishda pasayish kuzatilmoqda. Bu holat sanoatning umumiy raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Innovatsion sarmoyalar iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Bilim ishlab chiqarish sohasiga innovatsion mablag'lar kiritilishi, mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish usullarining takomillashuvi, texnologik yangiliklarning joriy etilishi va ishlab chiqarish omillarining sifat jihatdan yaxshilanishi natijasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (YaIM, MD va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM (MD)) miqdoriy o'sishi kuzatilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M.Abramovich, F.B.Larren, J Saks bozor islohotlarining institutsional muammoiarini aniqlashadi, A.Gershenkron - rivojlanayotgan mamlakatlarda nomukammal sanoat siyosatini, R. Lukas- sanoat o'sishida yangi texnologiyalar va investitsiyalar oqimiga eng asosiy to'siq bo'layotgan inson kapitalining past sifati, yetarli darajada bo'lmagan xususiy jamg'armalar va investitsiyalami tadqiq etgan. R.J Barro K.Salain Martin bugungi kunda qator texnologik yaqin qondosh bo'lgan AQSH va G'avrbiy yevropa mamlakatlarning o'sish konvergentsiyasini aniqlashdi, shu bilan birga Sharqiy yevropa mamlakatlarida bu o'sish nisbatan past darajada amalga oshdi. Umuman olganda, Barro va Ke.Salain Martinning gipotezasi zamonaviy rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli tendensiyasi - ularda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotining ma'lum bir statsional holati (eng rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga YAIM darajasi) bilan yaqinlashishi bo'lib hisoblanadi.[1,10-15]

Tadqiqot metodologiyasi. Iqtisodiyotimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan oqilona iqtisodiy islohotlar natijasida bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga erishilmoqda. Jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni samarali yo'lga qo'yish, ularda raqamli transformatsiya jarayonini amalga oshirishda bajarilishi lozim bo'lgan hatti-harakatlar ketma ketligiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Real sector korxonalarini raqamlashtirish xususiyatlarini, raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyatini o'rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shu bilan birga, iqtisodiyotga nisbatan konvergentlik va divergentlikni aniqlash, ulaming iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tavsiflashdagi o'mi va rolini baholashda turli-xil noaniqliklar mavjud. Shunday qilib, ijtimoiy formatsiyalarning rivojlantirish mantig'idan kelib chiqqan holda xo'jalik tizimlarining konvergentsiyasining noiqtisodiy tabiati haqidagi fikrlar tushunchasi bilan birga sof iqtisodiy industrial konvergensiya mavjud, sanoati rivojlangan jamiyatlarning obyektiv tendensiyalari sifatida (turli modellar va iqtisodiy tizimlar, turlami, muassasalarining o'zaro bir-biriga kirishishi va institutlarni transformatsiyalash va tizimlararo farqlarni tekislash), yoki tarixiy iqtisodiy rivojlanish jarayonidan subyektiv og'ish sifatida (elitani manfaatlarini amalga oshirish uchun harakatlari natijasida) mavjud. Shuning uchun ham, xo'jalik shakllarida konvergentsiyaning tarkibiy usullari jihati ochib berilgan emas va tarkibiy tuzilmaviy tahlil nuqtai nazarga ko'ra bunday konvergensiya xo'jalik shakllarini bir-biriga yaqinlashishini nazarda tutadi, biroq ularning iqtisodiyot tuzilmasining tarkibiy mazmunan yaqin elementlarining qarindoshlik aloqalari bilan bogliq emas. Ushbu mantiqdan kelib chiqib, 2016-larda O'zbekiston Respublikasida olib borilgan bozor islohotlari bilan boshlangan tizimli o'zgarishlar konvergent (yalpi xususiyashtirish, markazlashgan rejalashtirish tizimini demontaj qilish, ko'plab raqobatlashadigan firmalarni vujudga keltirish) xususiyatlariga ega edi. Shu bilan birga, deyarli bir vaqtda turli xil boshqa tendensiyalarga ega bo'lgan devirgent xususiyatlarga xos bo'lgan

chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Iqtisodiy divergensiya iqtisodiyotda tarkibiy shakllangan divergensiya jarayonlar bilan bog'liq bo'lib innovatsion va texnologik rivojlanishning zamonaviy global-keng tarqalgan tendensiyalari asosida shakllangan normadan og'ish bilan bog'liq iqtisodiyotda tarkibiy-shartli devirgent jarayonlar hisoblanadi. Iqtisodiy konvergensiya va divergensiya global va milliy iqtisodiy tizimlar tarkibida bir butunlikni (umumiy) va xususiy qaramaqarshilikni aks etadi deb hisoblaymiz. Bu qarama-qarshilik iqtisodiyotdagi konvergensiya va divergensiyaning umumiy asoslaridan kelib chiqadi. Bu erda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarishlarni keltirib chiqqan omillar iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasiga turli xil ta'sir etishi mumkin. Ularning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga yaqinlashtirishi yoki aksincha, uzoqlashishi mumkin. Umumiylik shakli sifatida ochiq iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi iqtisodiy munosabatlar subyektlari bo'lgan sanoat, tarmoqlar, sektorlar, bozor modellari, ijtimoiy guruhlar va hokazolarni birlashtiradi va to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar, texnologiya transferi, konvergensiya olib keladigan boshqa jarayonlar - mos iqtisodiy o'sish sur'atlari, tarmoq, tarkibiy tuzilmalari, iste'mol standartlari jahon bozori ta'siriga nisbatan sezuvchan bo'ladi. Iqtisodiy rivojlantirishning ijtimoiy mezonlari shu qadar muhim ahamiyat kasb etmoqdaki, ular ko'pgina siyosiy tuzilmalar dasturiy maqsadlari hamda iqtisodiy rivojlanish milliy modellarining ajralmas qismiga aylandi.[3,19]

Zamonaviy tendensiyalar davlatlarning ijtimoiy siyosatida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Bu "ijtimoiy davlat" va "umumiy farovonlik davlati" konsepsiyalari haqida yangi xulosalar chiqarishga turtki bo'ldi. Ko'plab mamlakatlarda kuzatilayotgan bu siyosiy o'zgarishlar asosan inson omili, uning bilimi va axborotning ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi beqiyos ahamiyati bilan bog'liq. Inson kapitali va bilimga asoslangan iqtisodiyotning o'sib borayotgan roli davlatlarni o'z ijtimoiy siyosatlarini qayta ko'rib chiqishga va jamiyat farovonligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga undamoqda.

Qashqadaryo viloyatida keyingi yillarda mamlakatimizda bo'lgani kabi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. So'nggi besh yilda viloyat iqtisodiyoti 1,5 barobar o'sdi, yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi 24 foizdan 30 foizga yetdi. Bu Qashqadaryo viloyatining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushi tobora ortib borishini ta'minlamoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz bo'yicha qazib olinadigan tabiiy gazning 10 foizi, gaz kondensatining 11 foizi, neftning 7 foizi, yetishtiriladigan paxtaning 11 foizi, g'allaning 9 foizi, pillaning 12 foizi Qashqadaryo viloyatining hissasiga to'g'ri kelmoqda.[1,25]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son farmonida hamda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining Qashqadaryo viloyatidagi ijrosini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturlarida belgilangan vazifalarni bajarish natijasida Qashqadaryo viloyatidagi korxonalarni texnik va texnologik jihatdan yangilash hamda mahalliy lashtirishni rag'batlantirish asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish ishlari amalga oshirildi. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni ichki imkoniyatlardan foydalanish bilan bog'lab o'rganishda viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Yalpi hududiy mahsulotning

o'sishi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi, viloyat sanoatining respublika sanoatidagi ulushi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

**Qashqadaryo viloyatida sanoat rivojlanishining umumiy
ko'rsatkichlari tahlili [2,35]**

№	Ko'rsatkichlar va o'lchov birligi	2018y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 y. 2018 y.ga nisb-n
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd. so'm	6843,6	8090,7	9488,4	10924,4	12238,9	178,8
2.	Yalpi hududiy mahsulotni o'sish sur'ati, %	108,0	108,2	107,5	107,9	101,7	- 6,3 p
3.	Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm	3073,9	3972,6	5143,9	5569,6	6353,1	206,6
4.	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, %	110,3	109,6	111,3	106,5	100,8	- 9,5 p
5.	Yalpi hududiy mahsulot tarkibida sanoatning ulushi, %	24	27	30	29	30	+ 6 p
6.	Sanoatning respublika sanoatidagi ulushi, %	4,4	4,7	5,3	5,0	4,4	-

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'rganilgan yillarda viloyat yalpi hududiy mahsulotining o'sishi bilan bir qatorda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi ro'y bergan. Yalpi hududiy mahsulot va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarida pasayish ro'y bergan. Viloyat sanoatining respublika sanoatidagi ulushi oxirgi yilda pasaygan. Bu ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida sanoatni rivojlantirish tadbirlarini ishlab chiqish zarurligini bildiradi.[4,41]

Qashqadaryo viloyatida oxirgi ikki yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yalpi hududiy mahsulot o'sishidan orqada qolishi bilan bir qatorda (1-jadval) viloyatning yalpi hududiy mahsuloti tarkibida sanoat mahsulotlarining ulushi kamaygan. Buni yalpi hududiy mahsulot tarkibida iqtisodiyot tarmoqlarining ulushi orqali ko'ramiz (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot tarkibida iqtisodiyot tarmoqlarining ulushi (jamiga nisbatan foizda)

Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotining tarkibini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, viloyatda keyingi yillarda sanoat va qishloq xo'jaligining ulushi kamayishi bilan bir qatorda xizmatlar sohasining ulushi ortib bormoqda. Bu holat viloyatda sanoatni rivojlantirish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini bildiradi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda sanoat rivojlanishining xususiyati shundan iboratki, tarmoq korxonalarida ichki imkoniyatlardan samarali foydalanib, turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar barpo etilmoqda, ularda yangi ish o'rinlari yaratilib, ishlovchilarni daromadi oshib bormoqda.

Yuqoridagi tahlil natijalarida biroz pasayish sur'atlari kuzatilgan bo'lsa-da, sanoat tarmoqlari viloyat iqtisodiyoti rivojlanishiga yetarlicha ulush qo'shmoqda. Viloyatdagi sanoat korxonalarida foydalanilgan ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirishi, tarmoq korxonalarining mulkchilik shakllari o'zgarishi natijasida viloyatdagi sanoat korxonalari faoliyatida ma'lum davr mobaynida biroz pasayish ro'y bergan, lekin hozirgi kunda ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida ko'plab yangi sanoat korxonalari barpo etilmoqda va ularning samarali faoliyat yuritishi natijasida sanoatning viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati oshib bormoqda. Qashqadaryo viloyatida sanoatning tarkibiy tuzilishi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Qashqadaryo viloyatida sanoatning tarkibiy tuzilishi

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi oshib borishi bilan bir qatorda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining ulushi kamayib bormoqda. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish kabi tarmoqlarning ulushi kam bo'lgani holda ularning o'sish sur'atlari deyarli o'zgarishsiz qolmoqda. Bu viloyatdagi yirik Qashqadaryo neftni qayta ishlash zavodining mahsulot ishlab chiqarishi o'sishi bilan bir qatorda viloyatdagi boshqa korxonalar ham mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirib borayotganini bildiradi. Bu viloyat sanoati uchun ijobiy holat hisoblanadi.[5,38]

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarning ijrosini ta'minlash natijasida 2023 yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti 1,5 baravarga oshishi,

unda sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning ulushi hozirgi 29,0 foizdan 34,0 foizga, qayta ishlovchi tarmoqlarning sanoatdagi ulushi 80 foizdan 85 foizga oshishi, qishloq xo'jaligining ulushi 31 foizdan 25 foizga kamayishi, xizmatlar sohasining ulushi 41 foizgacha oshishi prognoz qilinmoqda. 2022 yilning 1 yanvar holatiga Qashqadaryo viloyati aholisi soni 1878,7 ming kishini tashkil etdi va viloyat yalpi hududiy mahsuloti aholi jon boshiga hisoblaganda 6616,0 ming so'mga teng bo'ldi. Respublikamiz yalpi ichki mahsulotida viloyat yalpi hududiy mahsulotining ulushi 5 foizni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti rivojlanishi ma'lumotlari tahlilidan ko'rinmoqdaki, viloyatda 2017 yilda sanoat mahsuloti hajmi 6353,1 mlrd. so'mni yoki o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,8 foizni tashkil etdi. 2017 yilda 2866,3 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 97,4 foizni tashkil etdi. Jumladan, 1617,4 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari va 2037,2 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, ularning ulushi 44,3 foiz va 55,7 foizni tashkil etdi.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalari rivojlanishining ishlovchilar mehnati bilan bog'liq ko'rsatkichlari tahlili

№	Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2023 y. ga 2019 y. ga nisb-n %
1.	Korxonalar soni	1853	2057	2244	2457	2590	139,7
2.	Mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	3073,9	3972,6	5143,9	5569,6	6353,1	206,6
3.	Ishlovchilar soni (ming kishi)	27,0	28,7	30,4	31,6	32,3	119,6
4.	O'rtacha oylik ish haqi (ming so'm)	1159,2	1391,9	1407,3	1518,7	1591,1	137,2
5.	Mehnat unumdorligi, ming so'm	31996,2	37841	47797,1	52074,1	59183,4	184,9
6.	Mehnat unumdorligining o'sishi, %	108,3	107,6	109,5	104,5	105,3	- 3,0 p

Viloyatda 2019-2022 yillarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha umumiy qiymati 1 trillion 200 milliard so'mlik 1000 dan ziyod investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarini ishlovchilarning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida rivojlantirishni tahlil qilishda sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ulardagi ishlovchilar soni, ish haqi va mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlar o'rganildi. Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalaridagi mazkur ko'rsatkichlar 2-jadvalda tahlil qilindi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida o'rganilgan yillar davomida sanoat korxonalari soni, sanoat mahsulotlari hajmi va ularda ishlovchilarning soni oshib borgan. O'rtacha oylik ish haqining miqdori o'sishi mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi oshishidan orqada qolgan. Bu viloyatdagi sanoat korxonalarida

ishlovchilarga beriladigan ish haqini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini bildiradi.[6,24]

Viloyatdagi sanoat tarmoqlari ichida mahsulot ishlab chiqarish, ish haqi to'lash va mehnat unumdorligi bo'yicha yoqilg'i sanoati yetakchi bo'lib turibdi. Ish bilan band etish bo'yicha yengil sanoat yuqori ko'rsatkichga ega, lekin yengil sanoat korxonalarida o'rtacha ish haqi miqdori juda past. Shuningdek, oziq-ovqat sanoatida ham mahsulot ishlab chiqarish, ish haqi va mehnat unumdorligi nisbatan past darajada.

Qashqadaryo viloyatida asosan, yoqilg'i, yengil va oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan bo'lib, ularda viloyatdagi jami sanoat mahsulotlarining 80 foizdan ko'prog'i ishlab chiqariladi. Viloyatdagi sanoat tarmoqlari bo'yicha yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarning o'zgarishi holatini o'rganish maqsadida viloyatdagi oziq-ovqat, yengil va yoqilg'i sanoati korxonalarining ko'rsatkichlari solishtirib tahlil qilindi. (3-jadval).

3-jadval

Qashqadaryo viloyatidagi asosiy sanoat tarmoqlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari solishtirma tahlili

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Oziq-ovqat sanoati	Yengil sanoat	Yoqilg'i sanoati
Mahsulot hajmi	mlrd. so'm	764,8	1564,7	3271,4
Ishlovchilar soni	kishi	6744	18748	7288
O'rtacha oylik ish haqi	ming so'm	1462,4	768,9	2572,3
Mehnat unumdorligi	ming so'm	1132,8	834,6	4488,5

Demak, viloyatdagi oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

4-jadval

Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotining tarmoqlar bo'yicha tuzilmasi, foizda

Kўрсаткичлар	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.	2023 й.
I. Ялпи ҳудудий маҳсулот	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Тармоқларнинг ялпи қўшилган қиймати	88,8	89,2	90,6	89,4	90,1
Маҳсулотларга соф солиқлар	11,2	10,8	9,4	10,6	9,9
II. Тармоқларнинг ялпи қўшилган қиймати	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Қишлоқ хўжалиги	36,0	33,0	32,0	32,0	31,0
Саноат (қурилишни қўшган ҳолда)	24,0	27,0	30,0	29,0	20,0
Хизматлар	40,0	40,0	38,0	39,0	40,0

Jumladan, 2017 yilda qiymati 1024,5 mlrd. so'mlik 408 ta loyiha amalga oshirildi, 2018 yilda 1274,1 mlrd.so'mlik 362 ta loyihani amalga oshirish nazarda tutilgan. 2017-2021 yilda davlat dasturi tadbirlarini amalga oshirishning jami xarajatlari 2523,8 mlrd. so'm va 164,9 mln. AQSH dollarini tashkil etadi, shundan budjet va maqsadli jamg'armalar mablag'lari 385,8 mlrd. so'm, ya'ni 15,3 foiz, ijrochilar va xayriya tashkilotlari mablag'lari 1183,7 mlrd. so'm, 46,9 foiz,

kreditlar 954,3 mlrd. so'm, ya'ni 37,8 foiz, moliya institutlari mablag'lari va beg'araz yordam 164,9 mln. AQSH dollarini tashkil etmoqda.

So'nggi yillarda sanoat tarmoqlarining kichik bo'laklarga bo'linishi, yangi sanoat tarmoqlarining vujudga kelishi, tarmoqlar orasida integratsiya jarayonlarining rivojlanishi, tarmoqlararo majmualarning shakllanishi, fan-texnika yutuqlari bilan bevosita bog'liq tarmoqlarning yuqori sur'atlarda rivojlanishi ro'y bermoqda.[3,101]

Bugungi kunda tarkibiy islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri sanoat tarmoqlarida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda eng maqbul sanoat tuzilmasini shakllantirish hisoblanadi. Hozirgi kunda sanoatning shakllangan tuzilmasi bozor mezonlariga qanchalik mos kelishini baholash, qaysi tarmoqlar talab darajasida rivojlanmayotganini aniqlash tarkibiy siyosatning maqsadlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda sanoat mahsulotlarining o'sish ko'rsatkichlari 5-jadvalda keltirilgan.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi moddiy farovonligini oshirishda mahalliy sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari alohida o'ringa ega bo'lib, aholi turmush farovonligini ta'minlanishning asosini moddiy ne'matlar ishlab chiqarish tashkil etadi.


5-jadval

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.		2022 y.		2023 y.	
	mlrd. so' m.	mlrd. so' m.	o' sish sur' ati,%	mlrd. so' m.	o' sish sur' ati,%	mlrd. so' m.	o' sish sur' ati,%
Alohida faoliyat bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish	3972,6	5143,9	111,3	5569,6	106,5	6353,1	100,8
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	199,7	530,9	124,3	553,8	102,3	283,3	97,6
Ishlab chiqarish sanoati	3552,3	4375,3	109,8	4768,4	107,1	2746,7	103,7
oziq-ovqat mahsulotlari, ichim-liklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	908,5	1128,1	119,2	1453,3	100,7	828,3	105,7
to'qimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish	958,5	1168,6	113,1	1108,3	105,9	558,8	106,6
yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish	60,6	64,0	2,0 m.k.	85,4	125,1	62,6	109,7
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	3,6	3,0	112,0	4,4	145,2	2,4	82,7
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1194,6	1448,9	98,3	1354,9	103,2	876,8	100,7
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa ishlab chiqarish	65,7	135,2	175,3	209,6	141,7	106,9	105,8
asosiy farmatsevtika mahsuloti va preparatlari ishlab chiqarish	2,2	5,6	2,3 m.k.	6,6	104,8	3,3	94,4
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	257,4	265,0	99,6	347,2	117,0	194,0	101,9
metallurgiya sanoati	1,6	1,5	101,4	4,5	165,8	4,9	85,7

mashina va uskunalar ishlab chiqa-rish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari ishlab chiqarish	4,6	6,5	103,6	1,3	120,0		
Elektr, gaz, bug' bilan ta'min-lash va havoni konditsiyalash	183,5	199,8	113,8	199,1	105,2	113,1	109,5
elektr energiyasini ishlab chiqa-rish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari	183,5	199,8	113,8	199,1	105,2	113,1	109,5
Suv bilan ta'minlash, kanali-zatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	37,1	37,9	107,7	48,3	102,0	27,4	105,0

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar natijasida keyingi yillarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning ham doimiy o'sishi dinamikasi kuzatildi (2-rasm).



2-rasm. Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining dinamikasi (ming so'm)

Sanoat tarmog'ini ichki omillardan samarali foydalanish asosida rivojlantirish sanoat tarmoqlarining ishlovchilarni o'zida band etishi bilan ham baholanadi. Viloyatdagi sanoat korxonalarida ishlovchilarning iqtisodiyotda band aholi tarkibidagi ulushi tahlil qilindi (6-jadval).

6-jadval

Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmog'ida ishlovchilarning iqtisodiyotda bandlar tarkibidagi ulushi

Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2023 y. 2019 y. ga nisbat, %
Aholi soni, ming kishi	1756,0	1785,4	1816,1	1843,5	1878,7	106,9
Iqtisodiyot tarmoqlarida band-lar soni, ming kishi	818,4	823,2	824,2	825,3	827,2	101,1
Sanoatda bandlar soni, ming kishi	96,6	98,8	100,5	103,1	105,0	108,7
Sanoatda bandlarning jami bandlar tarkibidagi ulushi, %	11,8	12,0	12,2	12,5	12,7	+0,9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, keyingi yillarda viloyatdagi sanoat tarmoqlarida ishlovchilarning iqtisodiyotda bandlar tarkibidagi ulushi oshib bormoqda. Bu sanoatni rivojlantirish va korxonalarda ishlovchilarning ichki imkoniyatlaridan foydalanish tadbirlari samarali amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak so'nggi 5 yil ichida viloyatda yalpi hududiy mahsulotning oldingi yilga nisbatan yiliga 6-9 foizga o'sishi kuzatildi. 2021 yilda Qashqadaryo viloyatining jami yalpi hududiy mahsulotini 100 foiz deb olsak, tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 83,3 foiz, mahsulotlarga sof soliqlar 16,7 foizni tashkil etgan. 2023 yilda tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 90,1 foizni, sof soliqlar 9,9 foizni tashkil etgan. Viloyatda bu borada ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bevosita korxonalarning ichki imkoniyatlardan samarali foydalanishi bilan bog'liq bo'lib, Qashqadaryo viloyatida ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish ko'rsatkichlarini tahlil yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Qashqadaryo viloyati hokimligi iqtisodiyot bosh boshqarmasining ma'lumotlari. (qashqadaryo.uz veb saytidan olingan.)
2. Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi. (stat.uz veb saytidan olingan.)
3. Батурина В.В. Ўзбекистон саноатининг ривожланиши: таркибий ўзгаришлар ва устувор йўналишлар. Ўзбекистон иқтисодиёти. Таҳлилий шарҳ. 2004. 97-104-б.
4. Isakov M., Aliyev Y. Industrial iqtisodiyot. O'quv-uslubiy majmua. – T.: Iqtisodiyot, 2017. 21-b.
5. Markova V. D., Kuznetsova S.A. Strategicheskiy menedjment – M.: Elektronaya biblioteka, 2004. S. 8
6. Fatxutdinov R.A. Innovatsionniy menedjment. Uchebnik dlya vuzov. M.: Intel Sintez, 1998. S. 34
7. Qodirov, Farrux. "Econometric modeling of medical services in the territories." *International Conference on Information Science and Communications Technologies ICISCT*. 2022.
8. Qodirov Farrux Ergash o'g'li. Econometric modeling of the development of medical services to the population of the region / Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. 2022/5/9. 1.1 Economical sciences.
9. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Aholiga tibbiy xizmat kўrsatiш soҳасининг келгуси ҳолатини башоратлаш." *Сервис" илмий-амалий журнал* (2022): 56-59.
10. Қодиров, Ф. "Қашқадарё вилояти аҳолисига тиббий хизмат кўрсатиш тармоқларини ривожлантиришнинг истиқболлари". «O'ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI» âà «AGRO ILM», 2022.
11. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti
12. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti
13. <http://www.mineconomy.uz>. – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligining rasmiy sayti.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).